



## TIJORAT BANKLARINING INNOVATSION FAOLIYATINING RIVOJLANISHIDA ZAMONAVIY KORPORATIV BOSHQARUV TIZIMINING O'RNI

Raxmatov Feruzbek

Aniq darajadagi qarorlar qabul qilish uchun qarorga oid qo'p qirrali ma'lumotlar zarur. Ayniqsa, iqtisodiy asoslangan qaror qabul qilish uchun ko'p hajmdagi ishonchli ma'lumotlar zarurdir. Shunday ekan, ushbu tadqiqot ishimizning rejasida, asosan, axborotlarning qanchalik zarurligi, nafaqat tashkilotning to'liq va munatazam faoliyat olib borishi uchun, balkim tashki muhitdan kuzatuvchilar uchun ham muhimligiga e'tibor qaratiladi.

Zamonaviy korporativ boshqaruvning rivojlanishiga hissa qo'shgan olimlardan B.Xodiev o'z ishlarining birida axborotlardan foydalanuvchilarni ichki va tashqi foydalanuvchilarga bo'linishi hamda, o'z navbatida, ularning bozor va ma'muriy buyruqbozlik asosidagi iqtisodiyotdagi ahamiyatini keltirib o'tgan (1.4-jadval).

1.4-jadval.

### Axborotlardan foydalanuvchilar

	Ichki foydalanuvchilar	Tashki foydalanuvchilar
Bozor iqtisodiyoti	Boshqaruv xodimlari	Aksiyadorlar, mulkdorlar, kreditorlar, mol yetkazib beruvchilar, sotib oluvchilar va davlat organlari
Ma'muriy buyruqbozlik asosidagi iqtisodiyot	Kompaniya rahbariyati	Davlat, vazirliklar, statistika va soliq organlari, boshqa davlat tashkilotlari

Demak, 1.4-jadvaldan shuni ko'rish mumkinki, axborotlardan foydalanuvchilar guruhida ichki foydalanuvchilar - bu boshqaruv xodimlari. Chunki boshqaruv xodimlari aksiyadorlik jamiyatlarining rentabeligini oshirishga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash va o'z navbatida, to'sqinlik qilayotgan yoki oqsayotgan qismga e'tibor berishni taqqozo etadi. Shuningdek, tashqi foydalanuvchilar uchun aksiyadorlik jamiyat faoliyati bilan ma'lumotlar turli xil koeffitsientlar: likvidlik, dividendlar to'lovi, kapitallar tarkibi, dividend siyosati to'g'risidagi nizom, biznes-rejası, yillik hisobot, investitsion jozibadorlik va ishlab chiqarilgadigan mahsulotlarning ro'yxati hamda ular to'g'risidagi ma'lumotlar qiziqtiradi.

Hammamizga ma'lumki, bugungi kungacha axborotlarning oshkoraliyi bo'yicha turli xil normativ-huquqiy xujjalalar qabul qilingan. Jumladan, O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi, «Aksiyadorlik jamiyatlar va aksiyadorlarning huquqilarini himoya qilish to'g'risida»gi, «Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risidagi»gi, «Buxgalteriya hisobi to'g'risida»gi, «Mas'uliyati cheklangan va qo'shimcha mas'uliyatli jamiyatlar to'g'risida» qonunlar, «Aksiyadorlik jamiyatlarining korporativ veb-saytlariga qo'yiladigan talablar to'g'risida»gi Nizom, «Qimmatli qog'ozlar bozorida axborot taqdim etish va e'lon qilish qoidalari» shular jumlasidan.



Yuqorida keltirilgan normativ-huquqiy xujjalalar asosida aksiyadorlik jamiyatlari tomonidan axborotlar bilan ishlashni yanada takomillashtirish uchun jamiyatda «Axborot siyosati to‘g‘risida»gi Nizomning ishlab chiqilishi va foydalanishi maqsadga muvofiq bo‘lishi mumkinligini ushbu sohaning yetuk mutaxassislaridan biri Samariddin Elmiraev alohida ta‘kidlab o‘tgan. Unga ko‘ra, axborot siyosati bir qancha asosiy vazifalarni aksiyadorlik jamiyatiga yuklaydi, jumladan:

- (1) axborot siyosatining asosiy tamoyillarini belgilash;
- (2) aksiyadorlik jamiyatining barcha manfaatdor shaxslariga axborotning ishonchli, haqqoniy va o‘z vaqtida taqdim etilishini ta‘minlash;
- (3) aksiyadorlik jamiyati axborotlarining xavfsizligini ta‘minlash;
- (4) aksiyadorlik jamiyatining manfaatdor shaxslariga jamiyat to‘g‘risida axborot taqdim etish qoida va tartiblarini belgilaydi;
- (5) axborotlar oshkorlik va shaffofigini oshirish hisobiga aksiyadorlik jamiyatining investitsion muhitini o‘sishga olib kelish.

Axborot siyosatining bir qancha tamoyillari bor bo‘lib, ular: doimiylik, tezkorlik, qulaylik, to‘liqlik, teng huquqlilik, tenglik va axborot resurslarining himoyalanganligidir. Ushbu tamoyillar 1.12-rasmda ko‘rsatilgan.

1.12-rasm. Axborot siyosatining asosiy prinsiplari



Endi, har bir tamoyilga qisqacha ta’rif berib o’tsak. Doimiylik tamoyili deyilganda, doimiy ravishda aksiyadorlik jamiyati faoliyatiga oid axborotlarni manfaatdor shaxslarga yetkazib borish tushuniladi. Demak, ma’lumotlar tizimidagi xabarlar doimiy ravishda yetkazib borilishi kerakligi muhimdir. Chunki charxpalak o‘z vazifasini to‘laqonli ravishda bajarishi uchun, uning barcha charxlari mutanosiblikda aylanishi kerak.

Tezkorlik tamoyili bu manfaatdor shaxslarning aksiyadorlik jamiyatining moliyaviy faoliyatiga ta’sir etuvchi muhim habarlar va faktlardan qisqa muddatda xabardor bo‘lishi kerakligini ko‘rsatadi. Chunki ma’lumotlarning tez tarqalishi jamiyat va manfaatdor shaxslar o‘rtasida paydo bo‘lishi mumkin bo‘lgan tushunmovchiliklarning oldini oladi.

Qulaylik tamoyili bu manfaatdor shaxslarga jamiyat faoliyatiga oid har qanday moliyaviy yoki moliyaviy bo‘lmagan habarlarning oshkor etilishi turli xil bo‘lishidir. Chunki jamiyatning axborot tarqatuvchi manbai bir qancha vositalar orqali amalga



oshirilishi zarurdir. Misol uchun faqatgina jamiyatning veb-sarlavhasida emas, balki ommaviy ahorrot vositalari yoki boshqa qulay axborot kommunikatsiya texnologiyalari orqali yoritilishi kerak.

To'liqlik tamoyili bu ma'lumotlarning to'liq oshkor etilishidir. Manfaatdor shaxslar jamiyat faoliyati to'g'risida to'liq tasavvurga ega bo'lishi uchun jamiyat faoliyatiga oid ma'lumotlar to'liq aks ettirilgan bo'lishi kerak, hattoki ma'lumotlar salbiy ko'rsatkichlarni o'z ichiga olgan bo'lsa xam.

Teng huquqlik tamoyili bu barcha manfaatdor shaxslar aksiyadorlik jamiyatining faoliyatiga oid ma'lumotlarni olishda teng huquqqa egaligidir. Ushbu tamoyil ko'proq ulushga ega bo'lgan manfaatdor uchun ko'proq ma'lumot taqdim etilishining oldini olish maqsadida qabul qilingan.

Tenglik tamoyili bu aksiyadorlik jamiyatining tijorat manfaatlarini inobatga olgan holda jamiyat faoliyatining ochiqlik va shafoffligi o'rtaqidagi tenglikni ta'minlashdir. Boshqacha qilib aytganda, maxfiy axborotlarning himoyalanganligi va qonunchilik talablaridan kelib chiqqan holda ma'lumotlarni o'rtoqlashib borishdir. Axborot resurslarining himoyalanganligi tamoyili bu jamiyatning tijorat siri yoki boshqa maxfiy hisoblangan axborotlar xafsizligini ta'minlashdir.

Korxonalar faoliyati bilan bog'liq axborotlarni oshkor etishni S.Elmirzaev 3 guruhga bo'lgan va bu guruh 1.5-jadvalda ko'rsatilgan. Unga ko'ra axborotlar: majburiy, qo'shimcha va erkin oshkor etiladigan axborotlarga bo'linadi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014 yil 2 iyuldagи «Aksiyadorlik jamiyatlarida zamonaviy korporativ boshqaruv tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 176-sonli qarorida aksiyadorlik jamiyatining korporativ veb-saytini yuritish bo'yicha talablarda majburiy oshkor etilishi to'g'risida qayd etib o'tilgan va ular quyidagilar:

- (1) jamiyatning korporativ veb-sayti bo'yicha izlash;
  - (2) mobil qurilmalar uchun soddalashtirilgan dizaynli jamiyat veb-sayti versiyasi;
  - (3) imkoniyatlari cheklangan shaxslar uchun qo'shimcha qulayliklar yaratish (kontrastni qo'shimcha qilish, shriftni kattalashtirish, ovoz jo'rliги va boshqa funksiyalar);
  - (4) jamiyatning veb-saytidan xavfsiz foydalanish (maxfiy axborotni berish yoki pulli xizmatlar ko'rsatishni nazarda tutuvchi saytlar uchun);
  - (5) fuqarolarning murojaatlarini, shu jumladan, elektron pochtaga bildirishnomasi yuborish vositasida ko'rib chiqishni va vaqtini kuzatib borish;
  - (6) jamoatchilik fikrini o'rganish va jamiyat faoliyatiga tegishli masalalarni muhokama qilish vositalari (on-layn-so'rovlari, bloglar, forumlar);
  - (7) tashriflar va statistikani nazorat qilish vositalari.
- 1.5-jadval.

#### Axborotlarning oshkor etilish guruhlari

1	2	3
Majburiy oshkor etiladigan	Qo'shimcha oshkor etiladigan	Erkin oshkor etiladigan



Qo'shimcha oshkor etiladigan axborotlarga: zamonaviy korporativ boshqaruv kodeksi tavsiyalariga amal qilish, ijroiya organi haqida ma'lumot, 20 foizdan ortiq aksiyadorlar haqida ma'lumot va ijroiya organi hamda boshqaruv kengashi tizimi faoliyati samaradorligini baholash natijalari to'g'risidagi ma'lumotlar. Erkin oshkor etiladigan axborotlarga yuqorida sanab o'tilgan ma'lumotlardan tashqari ma'lumotlarni joylaytirish kiradi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI:

1. Астраханцева И.А., Дубов Д.А., Кутузова А.С. "Комплаенс-контрол в коммерческом банке," Аудит и финансовый анализ, no. 2, 2015.
2. Булыга Р.П. Куприянова Л.М. "Оценка комплаенс-рисков," Экономика. Бизнес. Банки, no. 3, 2015.
3. Дубов Д.А. "Мониторинг режимов эмбарго и санкций в деятельности комплаенс подразделений российских банков," Управление экономическими системами: электронный научный журнал, no. 4 (98), p. 26, 2017.
4. Дубов Д.А. "Внедрение системы комплаенс контроля в кредитных организациях," Инновационная наука, no. 2-1 (14), 2016.
5. Дудова И.Л. "Стандарты и методология комплаенс-контроля. Управление комплаенс- рисками," Управление финансовыми рисками, no. 1, 2011.
6. Ермакова Н.А. Ахунянова Ч.Ф. "Комплаенс-контрол в системе внутреннего контроля корпораций," Международный бухгалтерский учет, no. 3 (297), 2014.
7. Зуева А.С., Невянцева В.А. "Особенности правового регулирования комплаенс-контроля в банковской деятельности в условиях экономической нестабильности," Инновационное развитие экономики, no. 3, 2017.
8. Кириллов Р.А. "Теоретические основы управления регуляторным риском в системе внутреннего контроля банка," Известия Саратовского университета. Новая серия. Серия Экономика. Управление. Право, vol. 14, no. 4, 2014.